

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI SHE'RIY TARZDA TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Ma'murova Mohinur Farxodjon qizi

UBS universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Boshlang'ich ta'lim 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darlarini tashkil etishda she'riy usullardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *She'r, boshlang'ich sinf, dars mashg'uloti, o'quvchi, ohang, hissiyot, metod.*

Bu yorug' dunyoda har bir inson o'z kasbini fidoyisi, uning yetuk mutaxassisi bo'lishi, o'z o'rnida izlanuvchan, zamon bilan hamnafas bo'lishi zarurdir. Bugun iqtisodiy, ma'naviy siyosiy jihatdan yuksalib borayotgan yurtimizda yosh avlod tarbiyasi, qolaversa ertanggi kun egalarini komil, fozil, ma'nan boy qilib tarbiyalash biz pedagoglarning kundalik faoliyatiga ko'zlagan maqsadimiz bo'lmog'i lozim. Maktab inson hayotiga poydevor sanaladi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, farzandlarimiz ertaga yurt koriga yaraydigan, yot g'oyalarga quloq qo'ymaydigan dono va baxtli farzandlar bo'lib yetishadilar. Har bir dars mashg'ulotimizda o'z o'quvchilarimizda ilg'or g'oyalar bilan bilim berar ekanmiz ona zaminni e'zozlashga uni ko'z qorachig'idek asrashga undab yashamog'imiz lozim.

Bu yorug' dunyoda har bir inson o'z kasbini fidoyisi, uning yetuk mutaxassisi bo'lishi, o'z o'rnida izlanuvchan, zamon bilan hamnafas bo'lishi zarurdir. Bugun iqtisodiy, ma'naviy siyosiy jihatdan yuksalib borayotgan yurtimizda yosh avlod tarbiyasi, qolaversa ertanggi kun egalarini komil, fozil, ma'nan boy qilib tarbiyalash biz pedagoglarning kundalik faoliyatiga ko'zlagan maqsadimiz bo'lmog'i lozim. Maktab inson hayotiga poydevor sanaladi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, farzandlarimiz ertaga yurt koriga yaraydigan, yot g'oyalarga quloq qo'ymaydigan dono va baxtli farzandlar bo'lib yetishadilar. Har bir dars mashg'ulotimizda o'z o'quvchilarimizda ilg'or g'oyalar bilan bilim berar ekanmiz ona zaminni e'zozlashga uni ko'z qorachig'idek asrashga undab yashamog'imiz lozim.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarini tashkil etish, loyihalash va olib borish jarayonida tashkil etiladigan samarali ish usullarini amaliyotga joriy qilish, o'quvchilarning diqqati va e'tiborini jalb qilish maqsadida dars davomida turli didaktik metod va multimedia vositalaridan unumli va mazmunli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dars samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining ijodkorligi, kreativ fikrlashlarga moyilligi, darslarni loyihalash va olib borish jarayonida didaktik metod va multimedia vositalarini to'g'ri tanlay olishi, ulardan darslar jarayonida oqilona foydalana bilishiga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona — Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

Bizga ma'lumki, she'r ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutq muayyan o'lchov asosida takrorlanib turadigan tartibli zarbga qurilgan, inson sezimlarini uyg'otishga yo'naltirilgan, hissiyotga to'yingan ko'tarinki nutqdir. Uning o'ziga xosligini ritmik bo'lak va ritmik vosita ta'minlaydi. Bo'g'in, turoq, rukn, misra va band shaklidagi ritmik bo'laklar takrori she'riy nutqning ta'sirli va yashovchan bo'lishiga olib keladi. Uni shakllantirishda esa pauza, qofiya kabi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun berilgan darsliklarda har xil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan she'rlar bilan bir qatorda she'riy ertak va hikoyalar ham joy olgan. Bunday she'rlar o'quvchilarda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatni sevish, halollik, oilaparvarlik, bilim olishga intilish kabi hislar bilan birga she'riyatga qiziqishlarini ham uyg'otadi. Lekin bunday natijalarga ya'ni, she'rlarni bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularni mazmun va mohiyatini anglashlari uchun o'qituvchidan darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish talab qilinadi. Demak, darsliklarda berilgan she'rlarni shunchaki yod oldirish bilan cheklanmaslik lozim. She'r mavzusini e'lon qilishdayoq ularni mavzuga bo'lgan diqqatini oshirish, qiziqishini oshirish va uni o'rganishga xohishlarini uyg'otish uchun she'r mazmuniga mos topishmoq va jumboqlardan foydalanish, mavzu yuzasidan kichik suhbat o'tkazish usullaridan foydalanish mumkin. Shundan so'ng o'quvchilarda she'r yuzasidan oz bo'lsada tushuncha paydo bo'la boshlaydi. Keyin esa o'qituvchi berilgan she'rni ifodali, intonatsiya bilan, to'xtam va pauzalarga e'tibor berib o'qib berishi lozim. She'r o'qib berilgandan so'ng, uning mazmuniga e'tibor berish lozim. Chunki she'rni ma'nosini anglamagan o'quvchi uchun she'rni o'rganish va uni yod olish zerikarli mashg'ulot bo'lib qoladi. Shu tarzda she'r mavzusiga qarab, darsni turli metodlarda davom ettirish mumkin.

Hozirda texnika rivojlangan zamon. Bundan esa samarali foydalanish uchun o'quvchilarga she'r mavzusiga oid har xil video, slydlar namoyishi bilan darsni davom ettirish mumkin. Bular esa o'quvchilarni she'r yuzasidagi tasavvurlarini boyitadi. Tabiat, atrof-muhit to'g'risidagi she'rlarni o'rgatishda tabiat qo'yniga chiqib, ekskursiya darslarini tashkil qilish mumkin. Bulardan tahqari, har bir darslarda tashkil etiladigan suhbat ya'ni, savol-javob metodini qo'llash ham samarali. Bu metodni albatta she'rlarni mavzu doirasiga qaramay, har bir darsda qo'llasak bo'ladi. Savoljavoblarda faqat darslikdagi savollarni berish biln cheklanmasdan, o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'shimcha savollar bilan ham murojaat qilish kerak. Bu savollar

faqat she'r asosida emas, she'rga bog'liq holda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan savollar bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilarni boshlang'ich sinflardayoq mustaqil fikrlashga va uni erkin bayon qilib berishga o'rgatib borishimiz lozim. Bu borada L.Vigotskiy fikrini misol keltirishimiz mumkin: "Fikrlash jarayoni – bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola "yutib", o'zicha "hazm qila" boshlaganidan so'ng boshlanadi. Demak, o'quvchilarni ota-onalari bilan boshlangan bu jarayonni, biz o'qituvchilar rivojlantirishga harakat qilishimiz kerak. Ya'ni ularni mavzuni o'zlari "yutib", o'zlari "hazm qila" olishiga imkon berishimiz lozim. Bundan tashqari she'rdagi o'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlar ustida ham ishlash kerak. Bu o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar bu so'zlarni tahlil qilgandagina she'rni to'la mazmunini tushunib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga she'rlarni o'quvchilarga o'rgatishda faqat yod oldirish bilan cheklanmaslik lozim. Ularni nutqiga, she'rning mazmunini tushunib yetganligiga, she'r yuzasidan mustaqil fikr yuritib, javollarga javob bera olishlariga ham e'tibor qaratish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hazratqulov M., Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022..
2. Abdullayeva M." Ona till o'qitish metodikasi" .T- 2017
3. Z.Azimova, Z.F.Azizova, M.Qurbonova, I.M.Sattorova Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan metodik qo'llanma,Andijon-2014
4. Muhamedova S."Tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan.T-2015
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.:Noshir. 2009